



UDK:372.3/.4

Zuxra TO'XLIBOYEVA,
Andijon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: zuxramuxammadislom24@mail.ru

Pedagogika fanlari doktori, professor D.Isroilova taqrizi asosida

THE ROLE AND IMPORTANCE OF DEVELOPMENT CENTERS IN THE FORMATION OF CHILDREN'S CREATIVE SKILLS

Annotation

This article examines the role and importance of developmental centers in the formation of children's creative skills. The study analyzed the impact of the creative activity of children aged 5-7 years and classes in educational centers using observation, conversation and questionnaire methods. The results showed that educational centers are an important tool in the development of creative thinking and independent activity of children. Regular and purposefully organized creative activities significantly develop children's independent thinking, the ability to generate ideas, and the ability to work collaboratively. The positive influence of the developing environment on the psychology and socio-emotional development of the child is also noted. The article serves as an important theoretical and practical basis for innovative approaches, methodological experience and scientific research in preschool education.

Key words: Creativity, developmental centers, children, creative activity, preschool education.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИВАЮЩИХ ЦЕНТРОВ В ФОРМИРОВАНИИ ТВОРЧЕСКИХ НАВЫКОВ ДЕТЕЙ

Аннотация

В данной статье рассмотрена роль и значение развивающих центров в формировании творческих навыков детей. В исследовании анализировалось влияние творческой активности детей 5-7 лет и занятий в развивающих центрах с использованием методов наблюдения, беседы и анкетирования. Полученные результаты показали, что развивающие центры являются важным инструментом в развитии творческого мышления и самостоятельной деятельности детей. Регулярные и целенаправленно организованные творческие занятия значительно развивают у детей самостоятельное мышление, умение генерировать идеи, умение работать во взаимодействии. Также отмечается положительное влияние развивающей среды на психологию и социально-эмоциональное развитие ребенка. Статья служит важной теоретической и практической основой для инновационных подходов, методического опыта и научных исследований в дошкольном образовании.

Ключевые слова: Творчество, развивающие центры, дети, творческая активность, дошкольное образование.

BOLALARNING IJODKORLIK KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA RIVOJLANISH MARKAZLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalarning ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishda rivojlanish markazlarning o'rni va ahamiyati o'rganildi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat va so'rovnomalar metodlari yordamida 5-7 yoshdagi bolalar ijodiy faolligi va rivojlanish markazlardagi faoliyatlar ta'siri tahlil qilindi. Olingan natijalar rivojlanish markazlarning bolalarning ijodiy fikrlash va mustaqil faoliyatini rivojlantirishda muhim vosita ekanligini ko'rsatdi. Muntazam va maqsadli tashkil etilgan ijodiy faoliyatlar bolalarning mustaqil fikrlashini, g'oya yaratish qobiliyatini va o'zaro hamkorlikda ishlash ko'nikmasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shuningdek, rivojlantiruvchi muhitning bola psixologiyasi va ijtimoiy-emotsional rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlangan. Maqola maktabgacha ta'limdagi innovatsion yondashuvlar, metodik tajriba va ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Ijodkorlik, rivojlanish markazlar, bolalar, ijodiy faollik, maktabgacha ta'lim.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim sohasida bolalarning shaxsiy salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, ularning mustaqil fikrlash, muammolarga innovatsion yondashish va ijodiy yondashuvlarini shakllantirish dolzarb masalalardan biridir. Xususan, maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarda ijodkorlik ko'nikmasini rivojlantirish uchun zamonaviy, interaktiv va qulay muhitni yaratish zarur. Shu nuqtayi nazardan, rivojlanish markazlar bolalarning ijodiy fikrlashini rag'batlantirish, ularning iqtidorini aniqlash va rivojlantirishda muhim vosita sifatida e'tirof etilmoqda.

Rivojlanish markazlar orqali bolalar o'zlarining individual qobiliyatlarini ochib berishga, tajriba asosida o'rganishga, mustaqil qaror qabul qilishga o'rganadilar. Bu markazlarda bolalar faoliyatida ko'proq "o'rganish orqali kashf

qilish", "o'yin orqali rivojlanish" yondashuvlari asos qilib olinadi. Shunday ekan, mazkur maqolada rivojlanish markazlarning bolalar ijodkorligi shakllanishidagi roli va ahamiyati chuqur tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ijodkorlik (kreativlik) masalasi ta'lim va psixologiya sohalarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri bo'lib, ayniqsa maktabgacha yoshdagi bolalarda ushbu sifatni rivojlantirish zarurati ko'plab tadqiqotlarda e'tirof etilgan. Ijodkorlik – bu yangi g'oyalarni ilgari surish, mavjud muammolarga noodatiy yondashuv va original mahsulotlar yaratish qobiliyatidir. Ushbu sifatning erta yoshdanoq shakllanishi shaxsning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida muhim rol o'ynaydi [7].

Mashhur amerikalik tadqiqotchi E. P. Torrance tomonidan ishlab chiqilgan "Ijodkorlikni o'lchash testi" (TTCT) xalqaro miqyosda tan olingan va bolalar ijodkorligini baholashda eng ko'p qo'llaniladigan vositalardan biri hisoblanadi. U bolalarda to'rt asosiy ko'rsatkich – oqimlilik (fluency), moslashuvchanlik (flexibility), to'liqlik (elaboration) va o'ziga xoslik (originality)ni o'lchashga yordam beradi [8]. Bu testning qo'llanilishi bolalarda ijodiy salohiyat darajasini aniqlash va uni rivojlantirish yo'llarini izlashda samarali bo'lishini ko'rsatgan.

O'zbekistonlik olimlar ham maktabgacha ta'limda ijodkorlikni rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslarini chuqur o'rganib kelmoqda. Jumladan, N. K. Nishonova bolalar ijodkorligini rivojlantirishda o'yin, tasviriy san'at va dramatisatsiya mashg'ulotlarining integratsiyalashuvi muhimligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, ijodkorlikning asosiy komponentlari — qiziqish, erkin ifoda, emotsional faollik va ijtimoiy interaktsiya — aynan mazkur faoliyatlar orqali shakllanadi [6].

V. S. Muxina fikricha, ijodiy rivojlanish uchun muhitning ahamiyati juda katta. Ijodiy atmosferaga ega muhit, bolaning mustaqil harakat qilishiga, sinashiga va xato qilishdan qo'rqqanligiga imkon yaratadi. Bu holat rivojlanish markazlar faoliyatining asosiy ustunligi sifatida baholanishi mumkin [10].

Yana bir muhim nuqta – rivojlantiruvchi muhitda ta'lim beruvchilarning roli. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasiga ko'ra, bola ma'lum faoliyatni kattalar yoki tengdoshlari ko'magida bajarganida o'z salohiyatining yuqori bosqichiga erisha oladi [9]. Bu g'oya rivojlanish markazlardagi faoliyatlar pedagoglarning yo'naltiruvchi, rag'batlantiruvchi faoliyati qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalashtirilgan ba'zi loyiha hisobotlarida maktabgacha yoshdagi bolalarda ilmiy va san'at asosidagi ijodiy faoliyatlarning uyg'unlashtirilishi ijodkorlikni rivojlantirishga xizmat qilishi ko'rsatib o'tilgan [2]. Xususan, tajriba-sinov asosida qurilgan o'quv muhitlarida bolalar yangi g'oyalar yaratish va ularni o'z faoliyatida amalga oshirishda yuqori motivatsiyani namoyon qilgan.

Shuningdek, zamonaviy rivojlanish markazlar – bu nafaqat o'yin va mashg'ulotlar joyi, balki bola uchun "kashfiyot maydoni"dir. Ular bolada estetik, intellektual va emotsional jihatdan o'zini namoyon qilish imkonini beradi [3]. Rivojlantiruvchi muhitda bolalar o'z ixtirolarini sinab ko'rishadi, boshqa bolalar bilan fikr almashadilar va natijada ijodkorlikning ijtimoiy o'lchovi shakllanadi.

O'zbekistonda esa keyingi yillarda maktabgacha ta'lim tizimida davlat va xususiy sektorlar hamkorligida faoliyat yuritayotgan rivojlanish markazlarning soni ortib bormoqda. Bu markazlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan faoliyatlar (Montessori, Reggio Emilia, STEAM yondashuvi va boshqalar) bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega bo'lmoqda [5].

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturiga asosan, mavzuli rejalashtirish maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan rivojlanish markazlarida ta'limiy va tarbiyaviy jarayonni olib borishni nazarda tutadi [1]. Bu esa pedagoglarga har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari va noyobligini inobatga olgan holda, ularga individual yondashuv asosida ta'lim va tarbiya berish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, bolalarning qiziqishlari va ehtiyojlarini qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining guruh xonalarida rivojlanish markazlarini tashkil etishda o'yin faoliyati bolalar rivojida muhim rol o'ynashini hisobga olish zarur. Chunki o'yin orqali bolalarning hissiy holati barqarorlashadi, ijobiy his-tuyg'ular shakllanadi, ular dunyo, odamlar va o'zlariga nisbatan sog'lom munosabatda bo'lishni o'rganadilar hamda turli hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida to'g'ri tashkil etilgan va zamonaviy jihozlangan rivojlanish markazlari bir nechta muhim vazifalarni – ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi va rag'batlantiruvchi funksiyalarni bajaradi.

a) Mavzuli rejalashtirish asosida olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlanish markazlarining barcha elementlari – o'yinchoqlar, uskunalar va o'quv materiallari – doimiy ravishda yangilanib, to'ldirilib boriladi.

b) Bu markazlar bolalarning kattalar bilan hamda turli yoshdagi tengdoshlari bilan faol hamkorlik qilishiga, muloqotga kirishishiga, jismoniy faolligini oshirishga va birlariga ko'maklashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

v) Inklyuziv ta'limni samarali yo'lga qo'yish uchun esa, u yerda zarur sharoitlarni yaratish muhim hisoblanadi.

g) Ta'lim-tarbiya faoliyatini tashkil etishda esa mahalliy milliy-madaniy xususiyatlar hamda iqlimiy sharoitlarni hisobga olish lozim [1].

Rivojlanish markazlarini tashkil etishda asosiy mezon – bu "Ilk qadam" Davlat dasturini amaliyotga joriy etish va ilk hamda maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga qo'yilgan Davlat talablari asosida ish yuritishdir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda maxsus tashkil etilgan rivojlantiruvchi muhit, malakali pedagogik yondashuv va ota-onalarning faol ishtiroki hal qiluvchi omillardan sanaladi. Rivojlanish markazlar esa bu omillar uyg'unlashgan makon sifatida bolalarda ijodkorlikning shakllanishi va rivojlanishida muhim platforma vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu tadqiqotda bolalarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda rivojlanish markazlarning o'rni va ta'sirini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi sifatli tadqiqot yondashuviga asoslangan bo'lib, unda kuzatuv, suhbat va so'rovnoma metodlari uyg'unlikda qo'llanildi. Ushbu yondashuvlar orqali tadqiqot ishtirokchilari — bolalar, ularning tarbiyachilari hamda ota-onalarining faoliyati, qarashlari va tajribalari real muhitda chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqot doirasida Andijon shahridagi rivojlanish markazlarda 5–7 yoshli bolalarning ijodiy faoliyatlardagi ishtiroki bevosita kuzatuv usuli yordamida o'rganildi. Kuzatuvlar oldindan ishlab chiqilgan mezonlar asosida haftasiga ikki marta 25 daqiqalik faoliyatlar davomida olib borildi. Kuzatuv jarayonida bolalarning mustaqil fikr bildirishi, yangi g'oyalarni ilgari surishi, tasviriy san'at, yasash, hikoya to'qish kabi ijodiy faoliyatlarda ishtiroki, o'zaro hamkorlik qobiliyati va yangilikka intilish darajasi baholandi. Har bir holatda kuzatuvchi tomonidan maxsus jurnallarga bolalarning xatti-harakatlari, qiziqishlari va ijodiy faollik darajalari qayd etildi.

Bundan tashqari, tadqiqotning sifatli jihatini chuqurlashtirish maqsadida rivojlanish markazlarda faoliyat yuritayotgan tarbiyachilar va bolalar psixologlari bilan suhbatlar tashkil etildi. Suhbatlar bolalarning ijodiy rivojlanishida muhim hisoblangan omillar, samarali deb topilayotgan faoliyat shakllari hamda passiv ishtirok etayotgan bolalarni faollashtirish usullari haqida bo'ldi. Olingan javoblar yozib olinib, tematik kontent tahlil orqali tizimlashtirildi va amaliy tajribaga asoslangan qimmatli ma'lumotlar ajratib olindi.

Shuningdek, tadqiqotda ota-onalar va tarbiyachilar ishtirokida maxsus ishlab chiqilgan so'rovnomalar ham o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalar bolalarning kundalik hayotdagi ijodiy faolligi, rivojlanish markazlarga qatnashishdan keyingi o'zgarishlar va ularning mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari haqidagi subyektiv baholarni o'rganishga qaratilgan edi. So'rovnomalar 20 ta yopiq va ochiq savollardan

iborat bo'lib, natijalar statistik tahlil asosida guruhlab chiqildi va ularning asosida umumiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot davomida kuzatuv, suhbat va so'rovnoma metodlari asosida to'plangan ma'lumotlar tizimli tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar bolalarning ijodiy ko'nikmalarining rivojlanish darajasi va rivojlantiruvchi markazlarda olib borilayotgan faoliyatlar o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatdi.

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, rivojlanish markazlarga muntazam qatnashayotgan bolalar mustaqil fikrlash, yangi g'oya ilgari surish va erkin ijodiy faoliyatda qatnashishda yuqori faollik namoyon qilgan. Xususan, ijodiy topshiriqlarda (chizmachilik, haykaltaroshlik, hikoya to'qish) qatnashayotgan bolalarda yangilikka intilish va estetik didning shakllanishi kuzatildi. Bolalarning ko'pchiligi o'zaro hamkorlikda ishlashga moyil bo'lib, guruhli ijodiy faoliyatlarda faol ishtirok etgan.

Suhbatlar natijalariga ko'ra, tarbiyachilar bolalarning ijodiy salohiyati ochilishi uchun mos psixologik muhit va individual yondashuv muhimligini ta'kidladilar. Ularning fikricha, bolalarning tabiiy qiziqishi va eksperimentatsiyaga bo'lgan ehtiyoji ijobiy rag'bat bilan qo'llab-quvvatlansa, ijodiy rivojlanish ancha tezlashadi. Suhbat ishtirokchilari shuningdek, passiv ishtirok etayotgan bolalar bilan ishlashda dramatisatsiya, erkin rolli o'yinlar va integratsiyalashgan faoliyat turlarining samarali ekanini ta'kidladilar.

So'rovnoma natijalari statistik tahlil qilinar ekan, otanalar va tarbiyachilar tomonidan bolalarning ijodiy rivojlanishida ijobiy siljishlar qayd etilgan. Rivojlantiruvchi markazlarga qatnashuvchi bolalarning 80% dan ortig'ida

tasavvur kengligi, nutqiy ifoda erkinligi va o'z fikrini asoslash ko'nikmalari ijobiy yo'nalishda o'zgarish qilgan.

Kuzatuvlar va suhbat natijalari bir-birini to'ldirib, so'rovnoma orqali olingan subyektiv baholarni tasdiqladi. Ushbu holat rivojlanish markazlarning bolalarda ijodiy fikrlashni rag'batlantirish va erkin ifoda muhitini yaratishdagi ahamiyatini ochib berdi. Shuningdek, o'quv dasturlarining mazmunan boy va metodik jihatdan qiziqarli tashkil etilishi bolalarning mashg'ulotlarga ongli va faol munosabatda bo'lishiga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari rivojlanish markazlarda olib borilayotgan faoliyatlar bolalarning ijodiy salohiyatini ochishda muhim omil bo'lib xizmat qilayotganini isbotladi. Rivojlantiruvchi muhit, pedagogik yondashuvlar va oilaviy qo'llab-quvvatlashning uyg'unligi natijasida bolalarning ijodkorlik darajasida sezilarli o'sish kuzatildi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlanish markazlar bolalarning ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, faoliyatga yo'naltirilgan, bolaning individual qiziqishiga asoslangan yondashuvlar samarali hisoblanadi. Bunday markazlar bolalarning mustaqil fikrlashiga, yangi g'oyalar ishlab chiqishiga va o'zini ifoda etishiga yordam beradi.

Shuningdek, rivojlanish markazlar bolalar orasida ijtimoiy hamkorlik, muammoli vaziyatlarda harakat qilish, o'z ustida ishlash kabi muhim hayotiy ko'nikmalarni ham shakllantiradi. Kelgusida bu markazlar sonini ko'paytirish, ularning texnik va metodik bazasini mustahkamlash orqali bolalarning ijodiy rivojlanishiga yanada katta hissa qo'shish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva N. Mttida rivojlanish markazlari faoliyatini tashkil etishga doir tavsiyalar. – T, 2022 – 60 b
2. Creative Little Scientists. Final Report on Creativity and Science in Early Years Education. – European Commission Research Project, 2014. – URL: <https://www.creative-little-scientists.eu> (murojat sanasi: 27.05.2025).
3. Golombek X. Creative Environments for Early Childhood Education. – London: Routledge, 2016. – 192 b.
4. Hamidova S.A. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish. // Educational Research in Universal Sciences – Toshkent, 2023 – 258-260 b
5. Mirzayeva M. Maktabgacha ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirishda innovatsion metodlarning roli // Ta'lim va taraqqiyot. – 2022. – №2(4). – B. 45–50.
6. Nishonova N. K. Bolalarda ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari // Pedagogik ta'lim. – 2020. – №1(2). – B. 36–41.
7. Runco M. A., Jaeger G. J. The standard definition of creativity // Creativity Research Journal. – 2012. – Vol. 24, №1. – P. 92–96.
8. Torrance E. P. Torrance Tests of Creative Thinking: Norms-Technical Manual. – Bensenville, IL: Scholastic Testing Service, 1974. – 112 p.
9. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978. – 159 p.
10. Мухина В. С. Психология дошкольника. – М.: Просвещение, 1997. – 240 с.
11. Гогоберидзе А. Г. Развитие творческих способностей у детей дошкольного возраста – Москва, 2008 – 320с
12. Лыкова И. А. Изобразительная деятельность в детском саду. Старшая группа. – Москва: ИД «Цветной мир», 2012 – 207 с